“Yil ayoli” tanlovida Uzbekistan Airways vakilining mehnati e’tirof etildi

2026 24 Noyabr

Mirobod tumanida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi örni va faolligini oşiriş, ularning kasbiy salohiyati, taşabbuslari hamda erişayotgan yutuqlarini keng e’tirof etişga qaratilgan “Yil ayoli” milliy tanlovining tuman bosqiçi bölib ötdi.

Mazkur tanlovda turli sohalarda samarali faoliyat yuritib, öz bilimi, fidoyiligi va taşabbuskorligi bilan jamoatçilik e’tiborini qozongan xotin-qizlar 11 ta nominatsiya böyiça özaro bellaşdilar.



Tanlov iştirokçilari özlarining kasbiy yutuqlari, boy tajribasi, yetakçilik salohiyati hamda jamiyat rivojiga qöşayotgan hissasi bilan hakamlar hay’atining e’tirofiga sazovor böldilar.

Quvonarlisi, “Uzbekistan Airways” AJ nomidan “Öz kasbining ustasi bölgan yil ayoli” nominatsiyasida Qat’iy hisobdagi blankalar arxivini yuritiş guruhi rahbari Malika Baxramova iştirok etib, özining köp yillik mehnati va kasbiy mahoratini namoyon etdi. Tanlov yakunida u munosib iştiroki uçun taşakkurnoma bilan taqdirlandi.



Bu kabi e’tiroflar xotin-qizlarning kasbiy salohiyatini namoyon etiş, ularning mehnatini qadrlaş va yangi marralar sari ruhlantirişda muhim ahamiyat kasb etadi.



“Uzbekistan Airways” AJ jamoasi Malika Baxramovani uşbu e’tirof bilan samimiy tabriklaydi hamda kelgusi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar, yangi yutuqlar va yuksak marralar tilaydi!